



**FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY
MARKAZI**



**ONA TILI VA ADABIYOTI FANINI
O'QITISHDA ZAMONAVIY
METODLAR**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**AKADEMIK LITSEYLAR PEDAGOG KADRLARI
MALAKASINI OSHIRISH KURSI
“ONA TILI VA ADABIYOTI” yo‘nalishining**

**“ONA TILI VA ADABIYOTI FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY
METODLAR”
MODULI BO‘YICHA**

O‘QUV – USLUBIY MAJMUA

FARG‘ONA-2026

Modulning ishchi dasturi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 202__-yil __-____dagi ____-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishlari o'quv reja va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

- Tuzuvchi:** Farg'ona davlat universiteti (PhD), dotsent E.K.O'rinboyeva.
- Taqrizchi:** Farg'ona davlat universiteti "Tilshunoslik" kafedrasini mudiri, professor, f.f.n. M.T.Zokirov.
- Xorijiy ekspert:** Ozarbayjon Milliy Fanlar Akademiyasining Nosimiy nomidagi Tilshunoslik institutining Zamonaviy ozarbayjon tili bo'limi dotsenti, f.f.f.d. T.O.Askerova.

*Ishchi o'quv dasturi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Ilmiy-metodik Kengashining qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.
(202__-yil "____" _____dagi ____-sonli bayonnoma)*

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA‘LIM METODLARI	10
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	18
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	37
V. GLOSSARIY	79
VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI:	81

KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 2-sentyabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4910-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 296-son Qarorlarida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan tayanch modullari mavzulari orqali akademik litseylarda faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlarning ona tili va adabiyoti fanini o‘qitishda zamonaviy metodlarni qo‘llash darajasini oshirish hisobiga ularning pedagogik mahorat va kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirish bilan birgalikda pedagog xodimlarning ehtiyojlari asosida tanlab olingan tanlov modullari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari ta’minlanadi.

Modulning maqsad va vazifalari

Akademik litseylar pedagog xodimlarining malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog xodimlarning o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarini yuqori ilmiy-metodik darajada ta’minlashlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini muntazam yangilash, kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratining uzluksiz rivojlanishini ta’minlashdan iborat.

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini uzluksiz oshirish va rivojlantirish;
- pedagoglarning zamonaviy talablarga mos holda akademik litseylardagi o‘qitish sifati va samaradorligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan kasbiy mahorat darajasini oshirish;
- o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish hamda ulardan o‘quv jarayonida samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- o‘quv jarayonini ilm-fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta’minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo‘yiladigan talablar:

“Ona tili va adabiyoti fanini o‘qitishda zamonaviy metodlar” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- ona tili darslarida zamonaviy til o‘qitish metodlarini;
- kommunikativ metod, funksional-grammatik yondashuv, integrativ til kompetensiyalarini rivojlantirish usullarini;
- Flipped classroom (teskari sinf), problem-based learning, inquiry-based learning asosida til birliklarini o‘zlashtirish metodikasini;
- kompetensiyaga yo‘naltirilgan adabiy ta’lim, reader-response (o‘quvchi javobi) yondashuvi, interpretativ va dialogik o‘qitish metodlarini;
- ona tili va adabiyoti fanini o‘qitishda zamonaviy baholash metodlarini;
- o‘zaro baholash, o‘z-o‘zini baholash va refleksiya metodlarini;
- zamonaviy dars turlari va shakllarini;
- savod o‘rgatish metodikasining ilmiy, lingvistik va psixologik asoslarini ***bilishi*** kerak.

Tinglovchi:

- ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish;
- kompetensiyaga yo‘naltirilgan adabiy ta’lim, reader-response (o‘quvchi javobi) yondashuvi, interpretativ va dialogik o‘qitish metodlarini qo‘llash;
- zamonaviy metodlarni qo‘llashda pedagogik etika, akademik halollik va til madaniyatiga rioya qilish;
- o‘zaro baholash, o‘z-o‘zini baholash va refleksiya metodlarini qo‘llash;
- ta’lim jarayonida innovatsion ta’lim metodlaridan samarali foydalanish;
- o‘quvchilar nutqini o‘stirishda ko‘rgazmali eksperimentlar metodikasining o‘rnini tahlil qilish;
- nutqiy xatolar ustida ishlash yuzasidan muammoli topshiriqlarni loyihalash ***ko‘nikma va malakalariga*** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- ona tili darslarida zamonaviy til o‘qitish metodlarini;
- kommunikativ metod, funksional-grammatik yondashuv, integrativ til kompetensiyalarini rivojlantirish usullarini;
- Flipped classroom (teskari sinf), problem-based learning, inquiry-based learning asosida til birliklarini o‘zlashtirish metodikasini;
- kompetensiyaga yo‘naltirilgan adabiy ta’lim, reader-response (o‘quvchi javobi) yondashuvi, interpretativ va dialogik o‘qitish metodlarini;
- ona tili va adabiyoti fanini o‘qitishda zamonaviy baholash metodlarini;
- o‘zaro baholash, o‘z-o‘zini baholash va refleksiya metodlarini;

- zamonaviy dars turlari va shakllarini;
- savod o'rgatish metodikasining ilmiy, lingvistik va psixologik asoslarini *bilishi* kerak.

modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya o'quv yuklamasi		
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg'ulot
1.	Ona tili darslarida zamonaviy til o'qitish metodlari. Kommunikativ metod, funksional-grammatik yondashuv, integrativ til kompetensiyalarini rivojlantirish usullari	2	2	
2.	Zamonaviy dars turlari va shakllari. Savod o'rgatish metodikasining ilmiy, lingvistik va psixologik asoslari	2	2	
3.	Ona tili va adabiyoti fanini o'qitishda zamonaviy baholash metodlari. Formativ va summativ baholash, rubrikalar asosida yozma va og'zaki nutqni baholash	2		2
4.	O'quvchilar nutqini o'stirishda ko'rgazmali eksperimentlar metodikasining o'rni. Nutqiy xatolar ustida ishlash yuzasidan muammoli topshiriqlarni loyihalash	2		2
5.	Kompetensiyaga yo'naltirilgan adabiy ta'lim, reader-response (o'quvchi javobi) yondashuvi, interpretativ va dialogik o'qitish metodlari	2		2
	Jami:	10	4	6

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAVZULARI

1-mavzu: Ona tili darslarida zamonaviy til o'qitish metodlari. Kommunikativ metod, funksional-grammatik yondashuv, integrativ til kompetensiyalarini rivojlantirish usullari. (2 soat ma'ruza)

Ona tili darslarida kommunikativ metod. Kommunikativ kompetensiya va uning tarkibiy qismlari. Funksional-grammatik yondashuvning mohiyati. Integrativ til kompetensiyalarini rivojlantirish usullari. Zamonaviy dars modellari va baholash.

2-mavzu. Zamonaviy dars turlari va shakllari. Savod o'rgatish metodikasining ilmiy, lingvistik va psixologik asoslari. (2 soat ma'ruza)

Zamonaviy dars turlari va ularning tasnifi. Zamonaviy dars shakllari. Savod o'rgatish metodikasining ilmiy asoslari. Savod o'rgatish metodikasining lingvistik asoslari Savod o'rgatish metodikasining psixologik asoslari. Savod o'rgatishda zamonaviy metod va vositalar.

AMALIY MASHG'ULOTLARI MAVZULARI

1-mavzu: Ona tili va adabiyoti fanini o'qitishda zamonaviy baholash metodlari. Formativ va summativ baholash, rubrikalar asosida yozma va og'zaki nutqni baholash. (2 soat amaliy)

Zamonaviy baholash metodlarining nazariy asoslari. Formativ baholash va uning xususiyatlari. Summativ baholash va uning ahamiyati. Rubrikalar asosida baholash. Yozma nutqni baholash metodlari. Og'zaki nutqni baholash metodlari. Baholash jarayonida zamonaviy texnologiyalar.

2-mavzu: O'quvchilar nutqini o'stirishda ko'rgazmali eksperimentlar metodikasining o'rni. Nutqiy xatolar ustida ishlash yuzasidan muammoli topshiriqlarni loyihalash. (2 soat amaliy)

O'quvchilar nutqini o'stirishning nazariy asoslari. Ko'rgazmali eksperimentlar metodikasining mohiyati. Ko'rgazmali eksperimentlar asosida nutqni rivojlantirish usullari. Nutqiy xatolar va ularning turlari. Nutqiy xatolar ustida ishlashda muammoli yondashuv. Nutqiy xatolar bo'yicha muammoli topshiriqlarni loyihalash. Amaliy tajriba va natijalarni tahlil qilish.

3-mavzu: Kompetensiyaga yo'naltirilgan adabiy ta'lim, reader-response (o'quvchi javobi) yondashuvi, interpretativ va dialogik o'qitish metodlari. (2 soat amaliy)

Kompetensiyaga yo'naltirilgan adabiy ta'limning nazariy asoslari Adabiy kompetensiya tushunchasi va uning tarkibiy qismlari. An'anaviy bilimga yo'naltirilgan va kompetensiyaga yo'naltirilgan adabiy ta'limni taqqoslash. Reader-response (o'quvchi javobi) yondashuvining mohiyati Interpretativ o'qitish metodlari. Dialogik o'qitish metodining xususiyatlari. Zamonaviy adabiyot darsida metodlar integratsiyasi. Adabiy ta'limda **baholash va refleksiya**

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Ona tili va adabiyoti fanini o‘qitishda zamonaviy metodlar” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va masofaviy ta’limga asoslangan raqamli texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- video ma’ruzada zamonaviy interaktiv texnologiyalar yordamida prezentatsiya va elektron-didaktik texnologiyalar;

- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda bulutli texnologiyaga asoslangan dasturiy vositalar, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Maxsus adabiyotlar

1. Dadaboyev H. "O'zbek terminologiyasi" - T.: Nodirabegim, 2020-142b.
2. Xudoyberganova D. "Til. Tafakkur. Madaniyat" – T.: Nodirabegim, 2020.
3. Qodirov Sh. "O'zbek tilida punktuatsiya qoidalari" – T.: "Fan va ta'lim", 2019. – 132 b.
4. Normurodova G. "Yozma nutqda tinish belgilarining ro'li" – "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, №2, 2020. – 21–30 b.
5. Rustamova N. "Punktuatsiya va matnning mantiqiy tuzilishi" – T.: "Zamonaviy ta'lim", 2021. – 98 b.
6. Ergasheva D. "O'quvchilarda yozma nutq madaniyatini shakllantirishda punktuatsiya" – "Pedagogik innovatsiyalar", №3, 2022. – 35–42 b.
7. Tursunov A. "Zamonaviy maktabda o'zbek tilini o'qitishda punktuatsiya metodikasi" – T.: "O'qituvchi", 2023. – 112 b.
8. Jalilova S. Til kompetentsiyasini rivojlantirish metodikasi. – T.: "Fan va innovatsiya", 2020. – 140 b.
9. Mirzaev F. O'quvchilarda yozma nutq va til kompetentsiyasini oshirish. – "Ta'lim va tarbiya", №4, 2021. – 55–63 b.
10. Sattorova L. O'zbek tilini o'qitishda yozma nutq madaniyati. – T.: "Pedagogik qo'llanma", 2022. – 168 b.
11. Raxmonov B. Yozma nutq va punktuatsiya: o'quvchi kompetentsiyasi. – "Oliy ta'limda innovatsiyalar", №1, 2023. – 47–54 b.
12. Normurodova, D. O'zbek tili darslarida yozma nutq va punktuatsiya bo'yicha mashqlar. – T.: "O'qituvchi metodikasi", 2024. – 102 b
13. Simon Greenall "Reward" Elementary. Student's book. Macmillan, 2002.
14. Mahmudov N., Madvaliyev A., Mahkamov N., Andaniyozova D. O'zbek tili me'yorlari. Punktuatsiya. – T.: Zamin nashr , 2021. – 231 b.

IV. Elektron ta'lim resurslari

1. <http://natlib.uz>
2. <http://yedu.uz>
3. <http://lex.uz>
4. <http://lib.bimm.uz>
5. <http://ziyonet.uz>

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. **Interfaol metodlar** deganda-ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. SWOT tahlili izohi.

“Xulosalash” (Rezyume, Ver) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli haraktridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati

shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda shaxsning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan mahruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Namuna:

Fanga qo'yilgan zamonaviy talablar					
Fanga talabalarning munosabati		Fanga kirayotgan pedagog bilan talabalar munosabat		Fandan pedagog axborot texnologiya vositalar bilan ishlashi	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

"Keys-stadi" metodi. "Keys-stadi" - inglizcha so'z bo'lib, ("case" – aniq vaziyat, hodisa, "stadi" – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. "Keys metodi" ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot tahmini bilan tanishtirish	-yakka tartibdagi audio-vizual ish; -keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); -axborotni umumlashtirish; -axborot tahlili; -muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ini belgilash	-individual va guruhda ishlash; -muammolarni dolzarblik ierarxiasini aniqlash; -asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish	-individual va guruhda ishlash; -muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; -har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish;

yo'llarini ishlab chiqish	-muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys, yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	-yakka va guruhda ishlash; -muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; -ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; -yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys. Mashg'ulot jarayonida siz o'tayotgan mavzuni juda yaxshi biladigan talaba yoki talaba bor, shu sabab, u mashg'ulot davomida Sizga va ta'lim jarayoniga xalaqit bera boshladi: savollari, fikrlarga qo'shilishi bilan barchani diqqatini bo'lib chalg'ita boshladi

“FSMU” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur metoddan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi; har bir ishtirokchiga FSMU metodining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi: ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhliy tartibda taqdimot qilinadi. FSMU tahlili qatnashchilarda nazariy va amaliy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi. Namuna. Fikr: “Pedagogik pedagogika” Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod tahlil oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali tahlil oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi: “Assesment”lardan mahruza mashg'ulotlarida talaba yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, pedagogning ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod qatnashchilarni mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar

darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi: ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi; talabalarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda); talabalar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar; belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi; har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: **“Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”**

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?	Qo'shimcha ma'lumot
Pedagog	Pedagog-tarbiyachi. Yosh avlodga ta'lim-tarbiya beruvchi shaxs. Ta'lim-tarbiya jarayonini o'rganuvchi va bu jarayonni boshqarish muammolari bilan shug'ullanuvchi shaxs.	
Jamoa	Yig'ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh ma'nolarini anglatadi.	
Tarbiya	Muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.	
Shaxs	Psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.	
Insonparvarlik	Insonning qadri, erkinligi baxt-saodati teng huquqliligi to'g'risida insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida g'amxo'rlik qilishni ifodalovchi tushuncha.	
Pedagogik texnika	O'qitish, ta'sir ko'rsatish, ta'lim-tarbiya oluvchilarga o'z his-tuyg'ulari, bilimlari, axloqiy fazilatlarini uzatish texnologiyasini ifodalaydi.	

Izoh: Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.

“Blits-o'yin” metodi

Metodning maqsadi: talabalarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maqsadida qo'llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1.Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, yahni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o'rganish talab etiladi. Shundan so'ng, ishtirokchilarga to'g'ri javoblar tarqatmadagi "yakka baho" kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2.Navbatdagi bosqichda trener-o'qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh ahzolarini o'z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga tahsir o'tkazib, o'z fikrlariga ishonirish, kelishgan holda bir to'xtamga kelib, javoblarini "guruh bahosi" bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3.Barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, to'g'ri harakatlar ketma-ketligi trener-o'qituvchi tomonidan o'qib eshittiriladi, va shaxslardan bu javoblarni "to'g'ri javob" bo'limiga yozish so'raladi.


4."To'g'ri javob" bo'limida berilgan raqamlardan "yakka baho" bo'limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bo'lsa "0", mos kelsa "1" ball qo'yish so'raladi. Shundan so'ng "yakka xato" bo'limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo'shib chiqilib, umumiy yig'indi hisoblanadi.

5.Xuddi shu tartibda "to'g'ri javob" va "guruh bahosi" o'rtasidagi farq chiqariladi va ballar "guruh xatosi" bo'limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo'shiladi va umumiy yig'indi keltirib chiqariladi.

6.Trener-o'qituvchi yakka va guruh xatolarini to'plangan umumiy yig'indi bo'yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7.Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

Quyida "Bahs-munozara" metodini o'tkazish tuzilmasi berilgan.



“Bahs-munozara” metodining tuzilmasi

“Bahs-munozara” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammo bo’yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.
3. Ta’lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya’ni turli g’oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta’lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga o’z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.
4. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g’oyalarni guruhlariga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.
5. Tahlil natijasida qo’yilgan muammoning eng maqbul echimi tanlanadi.

“Bahs-munozara” metodining afzalliklari:


- ta’lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi;
- ta’lim oluvchilar o’z fikrining to’g’riligini isbotlashga harakat qilishiga imkoniyat yaratiladi;
- ta’lim oluvchilarda tinglash va tahlil qilish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

“Bahs-munozara” metodining kamchiliklari:

- ta’lim beruvchidan yuksak boshqarish mahoratini talab etadi;
- ta’lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo’lgan mavzu tanlash talab etiladi.

“Muammoli vaziyat” metodi - ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning echimini topish bo’yicha ko’nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo’yilgan muammoning echimini topishga qodir bo’lishlari kerak, aks holda echimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so’nishiga, o’zlariga bo’lgan ishonchlarining yo’qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo’llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning echimini topishni o’rganadilar. Quyida “Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi

“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo’yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o’rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni echishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni echish yo‘llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning echimi bo’yicha taqdimot qiladilar va o‘z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil echimlar jamlanadi. Guruh ta’lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni echish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

“Muammoli vaziyat” metodining afzalliklari:

- ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;
- ta’lim oluvchilar muammoning sabab, oqibat va echimlarni topishni o‘rganadilar;
- ta’lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- ta’lim oluvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o‘rganadilar.

“Muammoli vaziyat” metodining kamchiliklari:

- ta’lim oluvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi;
- qo‘yilgan muammo ta’lim oluvchilarning bilim darajasiga mos kelishi kerak;

III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-mavzu. Ona tili darslarida zamonaviy til o'qitish metodlari. Kommunikativ metod, funksional-grammatik yondashuv, integrativ til kompetensiyalarini rivojlantirish usullari.

Reja:

1. Ona tili darslarida zamonaviy til o'qitish metodlari.
2. Kommunikativ metod, funksional-grammatik yondashuv.
3. Integrativ til kompetensiyalarini rivojlantirish usullari.

Ona tili darslarida zamonaviy til o'qitish metodlari

Ona tili darslarida zamonaviy metodlar orasida kommunikativ metod (muloqotga yo'naltirilgan), funksional-grammatik yondashuv (tilning amaliy vazifalarini o'rganish) So'nggi yillarda respublikamizda til o'qitish tizimini yangicha innovatsion sifat bosqichiga olib chiqishga oid islohotlar umumiy o'rta ta'lim ona tili darslarida o'quvchilarga nutqiy kompetensiya komponentlarini egallashga doir ilmiy-nazariy bilimlarni chuqur o'rganish, erkin, kreativ, ilmiy va mantiqiy fikrlash hamda atrof-muhitga ongli munosabatni rivojlantirish, og'zaki va yozma savodxonligini mustaqil ifodalay olishlari uchun zarur imkoniyatlar bermoqda. Ta'limga kompetensiyaviy, integrativ va kommunikativ yondashuv o'quvchilarda ilmiy tafakkur potensialining o'sishi, kasbiy kompetentlikning faollashuvi, izlanuvchan, yangilikka intilgan, harakatchan, tashabbuskor, o'zining professional maqsadlarini aniq anglaydigan, yetuk, barkamol shaxs bo'lib yetishishiga ijobiy, samarali ta'sir ko'rsatadi. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturida "Ona tili fani o'quvchi shaxsida fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri va ravon bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantirish; o'quvchida til qurilishiga oid o'zlashtiriladigan amaliy bilimlarni (fonetika (orfoepiya), leksika, so'z tarkibi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish"ni nazarda tutadi. Tinglovchilarda ushbu malaka talablarini rivojlantirish va takomillashtirishda esa ona tili o'qituvchisining o'rni beqiyosdir. Bu xususida psixolog olim E.G'oziyev shunday deydi: "O'smirning to'g'ri mantiqiy fikrlashini rivojlantirish borasida ona tili va adabiyot o'qituvchisining roli juda muhimdir. U hamma vaqt o'quvchilarni to'g'ri jumla tuzishga, ravon mulohaza qilishga, fikr yuritishga, yozish o'rgatib boradi". Demak, nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida ona tili o'qituvchisi kontekstli o'qitish va zamonaviy yondashuvlar asosida o'quvchilarga mazmunan va grammatik jihatdan to'g'ri jumla tuzishni, mustaqil fikr yuritishni hamda o'z fikr-

mulohazalarini ogʻzaki hamda yozma bayon qilishda olingan bilimlarni amalda qoʻllay olishni oʻrgatib boradi. Ona tili nafaqat barcha fanlarni oʻzlashtirishda, balki umuman, jamiyatda insonlarning oʻzaro munosabatga kirishishida – muloqotning shakllanishida ham ahamiyatlidir. Ona tili darslarida milliy til - ona tilini oʻqitishda har bir sinfda oʻquvchilar egallashi koʻzda tutilgan nutqiy faoliyatning asosiy toʻrt lisoniy koʻnikmasini, yaʼni nutqni tinglab tushunish, gapirish, oʻqish va yozish amallari boʻyicha talab etiladigan malaka va koʻnikmalar meʼyori rivojlantirilib boriladi. D.Muydinova inson hayoti davomida nutqiy faoliyatning taʼsiri va ahamiyati, nutqning doimiy oʻsib boruvchanligi, oilada, jamiyatda va taʼlimda mazkur kompetensiyaning rivojlanish xususiyatlari aks etishi, ayniqsa, ona tili taʼlimida oʻquvchilarning nutqini rivojlantirish, oʻquvchilarni oʻz fikrini mustaqil, erkin va asosli bayon qila olish koʻnikmasini oʻstirish orqali nutqiy faoliyatga tayyorlash jarayonini sifatli tashkil etish va kutilgan natijaga erishishda ona tili darslarida taʼlim oluvchining ogʻzaki hamda yozma nutqini namunali darajaga olib chiqish toʻgʻrisida fikr yuritgan. Nutqiy kompetensiya uzluksiz taʼlimda oʻqitiladigan barcha fan predmetlarining integratsiyalashuvi natijasida takomillashib boradi va oʻquvchilarning oʻz nutqi ustida ishlashiga imkon beradi. Nutqiy kompetensiya oʻquvchilarning amaliy faoliyati davomida axborotlar bilan ishlashi, turli nutqiy vaziyatlarda oʻzgalar fikrini tinglashi va oʻz fikrini mustaqil bayon eta olishi, mantiqiy fikrlashi, ogʻzaki yoki yozma maʼlumot olish va maʼlumot berish jarayonlarida adabiy til meʼyorlariga amal qilgan holda lisoniy qoidalarni qoʻllashi natijasida takomillashib boradigan nutqiy bilim, koʻnikma va malakalarni qoʻllay olish qobiliyatidir. Oʻquvchilarning nutqiy kompetensiyalari ular mavjud boʻladigan barcha lisoniy hamjamiyatlarda, yaʼni: oʻz oilasida, tengdoshlari davrasida, ijtimoiy muhitlarda amalga oshiriladigan nutqiy faoliyatlari davomida sayqallanib boradi, chunki oʻquvchi oʻz navbati bilan ham soʻzlovchi, ham tinglovchi pozitsiyasini egallaydi, jarayonning faol ishtirokchisi sifatida savol-javoblarda qatnashadi, munosabat bildiradi, oʻz fikrlarini himoya qilishda soʻz boyligidan toʻla foydalanishga ehtiyoj sezadi, shu holat oʻquvchi leksikonida hikmatli soʻzlar, maqollar, hikoyalardan eshitib, oʻqib oʻzlashtirgan soʻzlardan amalda foydalanish imkoniyatini yaratadi. Nutqiy kompetensiyani tashkil etuvchi tinglash, soʻzlash, oʻqish va yozish tarkibiy elementlari oʻquvchilarda bir-birini taqoza etuvchi hamda toʻldirib boruvchi, oʻzaro chambarchas bogʻlangan nutqiy jarayonlar boʻlib, har biri nutqiy faoliyatning rivoji uchun muhim ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Umumiy oʻrta taʼlimda oʻquvchilarning nutqiy kompetensiyalari tizimli va uzluksiz ravishda oʻqitishning dastlabki bosqichlaridan boshlab rejaga muvofiq til sathlariga oid grammatik qoidalar va ularni mustahkamlashga doir mashq va topshiriqlar asosida rivojlantirilib boriladi. Ona tili darslarida oʻquvchilarning nutqiy kompetensiyalari ham rivojlantirilib boriladi. Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan axborot asrida til oʻqitish tizimida ham zamonaviy yondashuvlar, interfaol metodlar va zamonaviy didaktik vositalardan foydalangan holda oʻquvchilarda tinglash, soʻzlash, oʻqish va yozish nutqiy koʻnikmalarni kompleks rivojlantirish bugungi davr talabidir. Shu nuqtayi nazardan amaliyotda oʻquvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan Ona darslarida qoʻllaniladigan taʼlim metodlari va

didaktik vositalar tizimi quyidagicha mazmunga ega bo'lishi tavsiya etiladi: - o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid berilgan nazariy ma'lumotlar; - o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikma va malakalarini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar tizimi; - o'quvchilarning tinglab tushunish ko'nikma va malakalarini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar tizimi; - o'quvchilarning so'zlash ko'nikma va malakalarini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar tizimi; - o'quvchilarning yozish ko'nikma va malakalarini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar tizimi; - o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda matn va matn ustida ishlashga oid mashq va topshiriqlar tizimi; - o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda rasmi mashq va topshiriqlar tizimi. Demak, Ona tili darslarida o'quvchilarga nutqiy kompetensiya tarkibiy elementlarining funksional mazmunini singdirish va amalda qo'llashga o'rgatish ularning jamiyatda kommunikativ aloqaga kirishlarida, og'zaki va yozma muloqot jarayonlarida faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ona tillarini o'rganishga respublikamizning barcha ta'lim muassalarida katta e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun yetarlicha shartsharoitlar yaratilmoqda. O'qituvchilarning darslarni zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda olib borayotganligi o'quvchilarning o'zlashtirishida o'z aksini topyapti. Ma'lumki, chet tillar o'quv predmeti xususiyati o'qitish jarayoni xarakteri va pedagogik-didaktik tizimni asoslovchi aniq nazariya bilan aniqlanadi. Bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitishning boshqa o'quv predmetlardan farqi kompetensiyalar (lingivistik, nutqiy, pragmatik, sotsiolingvistik)ning hisobga olinishidir. Ta'lim jarayonini tashkil etish uchun yaratilgan sharoit ob'ektiv sharoit bo'lib, umuman chet tili, jumladan, chet tili ta'limining tarkibiy qismi sanaldi. Bugungi kun talabalaridan kelib chiqadigan bo'lsak, til ko'nikmalarini shakllantirishda an'anaviy yondashuv u yoki bu jihatlari bilan, yoki bir tomonlamaligi bilan o'quv jarayoning barcha ehtiyojlarini qondira olmay qoldi, natijada olimlar yangi, zamonaviy, katta samara beradigan ilg'or uslublarni ishlab chiqish haqida bosh qotirib, ma'lum darajada o'qitish uslubiyoti nazariyasiga yangilik kiritishga muvaffaq bo'ldilar, natijada bugungi kunda jahon miqiyosida keng qo'llanilayotgan kommunikativ metod yaratildi.

Til ko'nikmalarini shakllantirishda muloqotning o'rni juda ham ahamiyatli. Bir vaqtning o'zida eshitish, yozish, o'qish va ayniqsa gapirish ko'nikmalarini barobar shakllantirish uchun kommunikativ yondashuv asosida xorijiy tilni o'zlashtirish, an'anaviy usulga qaraganda ancha tezroq samara beradi. Masalan, eng muhim hisoblangan kommunikativlik qobiliyati va ko'nikmalarini rivojlantirishda, o'rganuvchilar o'rtasidagi hissiy bog'liqliklarni amalga oshirishga yordam beradi, tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo'lib, ulardagi muammolarni yechishga yordam beradi. Guruhlarda ishlashda, do'stlarining «Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya fikrlarini tinglashga va ularni qabul qilishda kommunikativ muloqotning o'rni juda katta. Kommunikativ o'yinlarni darsda qo'llashda o'rganuvchilarning asabiy bosimlarini yo'qotishga, dars davomida barcha

talabalarning bir xilda faol ishtirok etishlarini va faoliyat shakllarini almashtirishga imkon yaratadi. Darsning yanada qiziqarli o'tishini ta'minlaydi, talabalar diqqati tarqoq bo'lishini oldini oladi va mavzuning tugunli savollariga e'tiborlarini qaratishga yo'naltiradi. Talabalarda har kungi hayotda duch keladigan muloqotni dars davomida xorijiy tilda o'zlarida sinab ko'rish imkoni bo'lib, bu ularga kelajakda bermalol muloqot qilishlariga juda katta yordam beradi. Kommunikativ o'yinlar orqali darslar olib borilganda xorijiy tilni o'zlashtirishdan ko'zlangan maqsadga kutilgandanda tezroq muloqot qila olish ko'nikmalariga erishish mumkin.

Kommunikativ metod, funksional-grammatik yondashuv.

Zamonaviy ta'lim tizimida tilni o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish, ya'ni til vositalaridan real nutqiy vaziyatlarda samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Shu jihatdan kommunikativ metod va funksional-grammatik yondashuv til o'qitishda yetakchi pedagogik yondashuvlar sifatida e'tirof etiladi. Ushbu yondashuvlar o'quvchini passiv bilim oluvchi emas, balki faol muloqot ishtirokchisi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Kommunikativ metodning mohiyati

Kommunikativ metod — bu tilni o'rgatishda grammatik qoidalarni yodlashdan ko'ra, ularni amaliy nutq jarayonida qo'llashga yo'naltirilgan metoddir. Ushbu metod tilni aloqa vositasi sifatida o'zlashtirishni asosiy maqsad qilib qo'yadi.

Kommunikativ o'yinlar OTMlarning ona tili darslarida qo'llanilishi muhim hisoblanadi. Chunki ushbu yo'nalish talabalarining chet tilini o'zlashtirishlari biroz murakkabroq, ayniqsa gapirish ko'nikmalari yaxshi shakllanmagan. Shuning uchun ham darslarda interfaol metodlar va kommunikativ o'yinlar orqali olib borish, til ko'nikmalarini shakllantirishda kutilgan natijani bera oladi. Kommunikativ o'yinlar orqali chet tilida barcha til ko'nikmalarini bir vaqtning o'zida tez va samarali shakllantirish imkoni mavjud, ayniqsa muloqot qilishni rivojlantirish mumkin. Kommunikativ metodning boshqa metodlardan farqi shuki, unda eng pirovard maqsad talabalarda chet tilida erkin muloqot olib borish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish va turli hayotiy hamda ilmiy, madaniy, ijtimoiy – siyosiy mavzular yuzasidan muloqot olib borilishiga erishishdir.

Kommunikativ metod bu ona tili o'qitish tarixidagi barcha mavjud uslublarning eng yaxshi yutuqlarini o'ziga mujassamlashtirgan zamonaviy, ilg'or yondashuv bo'lib, unda asosiy e'tibor chet tilida og'zaki muloqot olib borishga qaratilgan bo'lib, til o'rganishning barcha boshqa tomonlari hammasi shu muloqot olib borishga xizmat qiladi. Bunda chet tilini o'rganishning quyidagi faoliyatlari o'zaro hamkorligining ta'minlanishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, jumladan: yozma nutq, og'zaki nutq, amaliy va nazariy bilimlar barchasi talabalar kommunikativ faoliyatini o'stirishga bevosita xizmat qiladi. Ayniqsa og'zaki nutqning quyidagi uch turiga asosiy e'tibor qaratiladi. Talabalar kommunikativ

faoliyatini o`stirishda kommunikativ o`qitishning bir yo`nalishi bo`lgan interfaol metod muhim rol o`ynaydi chunki aynan mana shu metod talabalarning chet tilida o`zaro erkin muloqot olib borishini taqozo etadi. Ayniqsa bunday metod bilan chet tilini o`qitishda nutqning barcha turlari bilan ish ko`rish yaxshi natija beradi. Demak, talabalarning monologik nutqi, dialogik 166 «Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya nutqi va ayniqsa polilogik nutqiga asosiy e`tiborni qaratib darsda yakka, juft va guruh bo`ylab ishlash yo`lga qo`yilishi lozimki, unda talabalar o`zlarida bevosita monologik nutq, dialogik nutq va polilogik nutq ko`nikma va malakalarini shakllantirishga erishadilar. Talabalar kommunikativ faoliyatini shakllantirish metodist o`qituvchidan katta va muntazam mehnatni talab qiladi. Bunday faoliyatni shakllantirish o`ziga xos texnologiyaga, ya`ni qator ijodiy metodik ishlar va faoliyatlarning majmuasiga asoslanadi, aks xolda natijalar yomon bo`lib chiqishi mumkin. Kommunikativ faoliyatni shakllantirishda didaktik prinsplarining barchasiga rioya qilinishi maqsadga muvofiqdir. Bu esa kommunikativ faoliyatni shakllantirishda bosqichma – bosqich ish ko`rishni bevosita taqozo etadi. Har bir bosqichda olib boriladigan u yoki bu faoliyat turi mantiqan obdon rejalashtirilishi kerak, ayniqsa, bosqichlarga ko`ra kommunikativ faoliyatni shakllantirishda til materiallarining talabalarga bo`lib – bo`lib o`rganish uchun taqdim etish, oddiydan murakkabga o`tish prinsipiga amal qilish birinchi darajali ahamiyatga ega. Til o`rganuvchilar kommunikativ faoliyatini rivojlantirishda metodist o`qituvchi bosqich yuqorilagan sari nutqning 3 asosiy turi bo`lgan monolog, dialog va poliloglardan unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir, bunda monologik nutq boshlang`ich bosqichlarda ko`proq qo`llanilsa, keyingi yuqori bosqichlarda dialogik va polilogik yutuqlar yaxshi samaralar berishi amalda ko`zatiladi.

Kommunikativ metodga, jumladan interfaol metodga asoslanib tashkil etilgan bunday darslarda o`qituvchi bir nazoratchi, kuzatuvchi yoki boshqaruvchi vazifasini o`taydi, darsda esa talabalar o`zaro faollik namoyish etib barcha faoliyatlarni o`zlari bajaradilar, ularga dars davomida gapirib muloqot yuritish imkoniyati beriladi. Talabalar kommunikativ faoliyatini o`tkazishda rollik o`yinlar, musobaqalarga asoslangan faoliyatlar video materiallarga asoslanib til o`rganish, chet tilida hikoya eshitirishlarini tinglash, chet elliklar bilan jonli muloqot olib borish imkoniyatlaridan foydalanishi talabalarda kommunikativ faoliyatini o`stirishda muhim omillar bo`lib xizmat qiladi. Ayniqsa muntazam chet tilidagi radio eshitirishlarini tenglab borish, jahon televidinyasining ingliz tilida beradigan teleko`rsatuvlarini muntazam ko`rib borish ingliz tilida gazeta - jurnallarni o`qib borish talabalar nutqining zamonaviy andozalar darajasiga ko`tarilishiga olib boradi. Chet tilini mukammal egallash, avvalo, uning yozma va og`zaki shakllarini puxta o`rganishni taqozo etadi. Bu ijobiy natijaga erishishda muhim ahamiyatga 167 «Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya ega. Biror shaxs bilan muloqotda bo`lish esa kishidan tilning ijtimoiy o`zaro ta`sir muhitiga kirishni talab qiladi. Agar suhbatdoshingiz o`z javobidan imoishora, yuz qiyofasi va tana a`zolari harakatidan foydalanmasa, uning fikrini tushunish chet tilini o`rganayotgan shaxslarga

mushkul bo'lishi mumkin. Kommunikativ faoliyatlarning maqsadi til o'rganuvchilarni ana shun-day munosabatlarga, muhitga javob berishga tayyorlashdir. Kommunikativ faoliyat ikki: yozma va og'zaki nutq, turlariga bo'linadi. Og'zaki nutq orqali chet tilini o'rganuvchi: xulosaga kelish; dis-kussiya qilish; ko'rsatmalar berish; muammoni hal etish; o'zi haqida so'zlash; rol va vaziyatli o'yinlarda ishtirok etish malakalarini orttiradi.

Kommunikativ kompetensiya – ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi – media manbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

O'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi – doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi – jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya – vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi – aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Ona tili o'quv predmetida quyidagi kompetensiyalar tayanch kompetensiya sifatida loyihaga kiritilgan:

- Mustaqil va ijodiy fikrlash kompetensiyasi
- Nutqiy(Lingvistik) kompetensiya
- Sotsiolingvistik kompetensiya
- Pragmatik kompetensiya

Quyidagi kompetensiyalar ona tili o'quv predmeti uchun tasdiqlangan tayanch kompetensiyalardir.

1. Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish):

2. Lingvistik kompetensiya (fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatika va uslubiyatga oid): Hozirgi vaqtda “til kompetensiyasi” atamasi ostida ma’lum bir tilda gaplashuvchi jamiyat a’zolarining bir-biri bilan muloqotga kirishishlari uchun zarur bo’lgan til malakasi majmuasi va o’quv predmeti sifatidagi til fani haqidagi bilimi tushuniladi.

Til kompetensiyasi o’quvchidan o’zi mansub bo’lgan yoki o’rganayotgan til va uning me’yorlarini bilishni taqozo qiladi. Demak, til kompetensiyasi u yoki bu til imkoniyatlaridan amalda foydalanish malakasidir.

Til uslubchilarining ta’kidlashlaricha, til kompetensiyasi tuzilishini ikki asosda – lingvistik va psixologik tamoyillar asosida belgilash mumkin. Lingvistik tamoyilga ko’ra, til bir necha sohalarning (fonetik, leksik, morfologik, sintaktik) o’zaro munosabatidan tashkil topgan butunlik ekan, til kompetensiyasi ham shu sohalarga xos kichik sistemalarning o’zlashtirilishiga qarab belgilanadi. Shunga ko’ra til kompetentligi deganda, insonning til ongida mavjud bo’lgan barcha kichik sistemalarning bir butunligi va undan foydalanish imkoniyati tushuniladi.

Ko’rinadiki, tilning sathli strukturasi til kompetensiyasi strukturasi belgilaydi. Demak, til kompetensiyasini til struktur bir butunligiga qiyosan belgilash mumkin bo’ladi. Bunga muvofiq, til kompetensiyalari fonetik, leksik, morfologik, sintaktik kompetensiyalarga ajratiladi. Tilning tovush imkoniyatlaridan vaziyatga qarab to’g’ri va o’rinli foydalanish malaka va ko’nikmasi fonetik kompetensiya; sinonim, omonim, antonimlar dan; metafora, metonimiya, sinekdoxalardan to’g’ri va o’rinli foydalanish malaka va ko’nikmasi leksik kompetensiya; qo’shimchalar omonimiyasi, sinonimiyasi, antonimiyasi kabilardan foydalanish malaka va ko’nikmasi morfologik kompetensiya; sintaktik qoliplar, gapda so’zlar tartibidan maqsadga muvofiq foydalanish malaka va ko’nikmasi sintaktik kompetensiyani shakllantiradi.

2-MAVZU. Zamonaviy dars turlari va shakllari. Savod o'rgatish metodikasining ilmiy, lingvistik va psixologik asoslari

Reja:

1. Zamonaviy dars shakllari.
2. Darslarni interfaol metodlardan foydalangan holda tashkil etish.
3. Zamonaviy dars jarayonida ta'limiy o'yinlardan foydalanish.
4. Zamonaviy dars jarayonida ta'limiy o'yinlardan foydalanish

Darslarni zamonaviy, interfaol metodlardan foydalangan holda tashkil etishning mohiyatini o'rgatish. Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi zamonaviy dars shakllarini quyida ko'rib chiqamiz.

Zamonaviy dars shakllari Ishchanlik o'yini darsi – dars mavzusi bo'yicha masalalarni hal etish jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishini ta'minlash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish mashqi. Rolli o'yin darsi - dars mavzusi bo'yicha masalalarni o'rganishda o'quvchilarga oldindan ma'lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rolni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustahkamlash darsi. Teatrlashtirilgan dars – dars mavzusi bilan bog'liq sahna ko'rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimedia, virtual o'quv kursi va shu kabilar) asosida o'tiladigan dars. Kim oshdi savdosi darsi – o'quv fani ayrim bo'limi bo'yicha bilimlarni har bir o'qituvchi qanchalik ko'p bilishini namoyish etish darsi. Yarmarka darsi – dars mavzusini bo'laklar bo'yicha oldindan o'zlashtirgan o'quvchilarning o'zaro muloqot asosida sinfga qiziqarli tushuntirish orqali o'tiladigan dars. Formulalar darsi – o'quvchilarning formulalarni puxta o'zlashtirishlari bo'yicha turli o'yinlar shaklidagi mashqlar o'tkazish darsi. O'yin darsi – dars mavzusiga mos o'yin orqali o'quvchilarning o'zlashtirishlari tashkil qilish darsi. “Sud darsi” - o'quvchilar bilan dars mavzusiga mos “sud” jarayonini tashkil etish orqali yangi mavzuni

tushuntirish darsi. Konsert darsi - dars mavzusini sahnalashtirgan holdagi konsert shaklida ifodalash mashqlari bo'lib, o'quvchilarni faollashtirish va bilimni mustahkamlash imkoniyatini beradi. "Tergovni bilimdonlar olib boradi" darsi - dars mavzusini oldindan puxta o'rgangan o'quvchilar yordamida qiziqarli savol-javoblar, tahlillar asosida isbotlab tushuntirish mashqlari bo'lib, bunda o'quvchilar dars mavzusini o'zlashtirib, eslab qolishlari uchun qulaylik yaratiladi. Integral (integratsiyalashgan) darsi - bir necha fanlarga oid integratsiyalash uchun qulay bo'lgan mavzular bo'yicha tashkil qilingan dars bo'lib, o'quvchilarning turli fanlarga qiziqishlarini orttirib, ta'lim jarayonidagi faolliklarini ta'minlaydi. Bunday darslar o'quvchilarga fanlararo bog'liqlikni o'rgatish orqali ulardan olam tuzilishining ularning ilmiy asoslarini to'liq idrok etish, ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. "Mo'jizalar maydoni" darsi – o'quvchilar bilan o'tkaziladigan qiziqarli o'yin bo'lib, turli savollarga belgilangan vaqt davomida to'g'ri javoblar topish va g'oliblarni rag'batlantirish orqali o'quvchilarda fikrlash, topqirlik, ziyraklik va bilimlarini kengaytirib borish sifatlarini shakllantiradi.

Darslarni interfaol metodlardan foydalangan holda tashkil etish. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarli hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda "Zakovatli zukko" metodi, "Qarama-qarshi munosabat" metodi, "Taqqimot" metodi, "Pinbord" metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta'lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin. Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar sanaladi. 1.

"ZAKOVATLI ZUKKO" - mavjud bilimlarni puxta o'zlashtirishda o'quvchilarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga egaliklari muhim

ahamiyatga ega. “Zakovatli zukko” metodi o‘quvchlarda tezkor fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod o‘z xohishlariga ko‘ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko‘rish istagida bo‘lgan o‘quvchlar uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ular o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to‘g‘ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko‘ra har bir savolga qaytarilgan to‘g‘ri javob uchun ballar belgilanadi. Yakuniy ballarning o‘rtacha arifmetik qiymatini topish asosida tezligi aniqlanadi. Ballarning belgilanishi o‘quvchilarning shaxsiy imkoniyatlari to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lishlarini ta‘minlaydi. Metod o‘quvchlar bilan yakka tartibda, guruhli va ommaviy ishlashda birdek qo‘llanilishi mumkin.

“QARAMA-QARSHI MUNOSABAT” metodi o‘z mohiyatiga ko‘ra o‘zlashtirilgan bilimlarni tahlil va sintez qilish asosida asosiy hamda ikkinchi darajali ma‘lumotlar sifatida guruhlariga ajratish imkonini beradi. Metodni qo‘llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi: -mavzuning umumiy mazmuni yodga olinib, uning ahamiyatini yorituvchi tayanch tushunchalar aniqlanadi; -ular muayyan ketma-ketlikda qayd etiladi; -tushunchalar shaxsiy yondashuv asosida muhim va u qadar muhim bo‘lmagan tushunchalar tarzida guruhlanadi; -jadval yaratilib, uning 1-ustuniga muhim bo‘lmagan tushunchalar yoziladi; -kichik guruhlar asosida shaxsiy yondashuv muhokama qilinadi; -jamoaning umumiy fikriga ko‘ra yakuniy xulosani ifoda etuvchi jadval yaratiladi. O‘quvchilar faoliyatining samaradorligini ta‘minlash uchun ularning e‘tiborlariga jadvallarni taqdim etish maqsadga muvofiqdir. 3. “Taqdimot” metodi o‘rganiladigan mavzu mohiyatini kompyuter xizmatidan foydalanilgan holda slaydlar majmuasi yordamida ochib berilishini ta‘minlaydi. Metodni qo‘llashda mavzuning asosiy g‘oyalari, tayanch tushunchalari, muhim xususiyatlari kichik matn, jadval, tasvir, sxema, rasm va diagrammalar asosida yoritiladi. Ushbu metod o‘quvchilarda mavzu mazmunini obrazli, yaxlit tarzda o‘zlashtirish ko‘nikmalarini shakllantiradi..

“Pinbord” metodi Bu usul aqliy hujum metodining bir ko‘rinishi bo‘lib, unda qo‘yilgan muammoni hal qilish bo‘yicha g‘oyalar alohida qog‘ozchalarda yozilib, doskaga mixlanib boriladi. Ikkinchi bosqichda esa, ular turli mezonlar bo‘yicha sinflarga bo‘linadi, saralanadi va muayyan tartibda doskada joylashtiriladi “Blits-so‘rov” (inglizcha “blits” – tezkor, bir zumda) metodi berilgan savollarga qisqa, aniq, lo‘nda javob qaytarilishini taqozo etadigan metod sanaladi. Unga ko‘ra o‘qituvchi o‘rganilgan mavzu, muayyan tarkibiy qismlar mohiyatining ochib berilishini talab etadigan savollarni ishlab chiqadi va o‘quvchilarning e‘tiboriga havola etadi. O‘quvchilar berilgan savolga qisqa muddatda, lo‘nda, aniq javob qaytara olishlari lozim. “Modellashtirish” (“modulus” – o‘lchov, me‘yor) metodi

o'quvchilarda o'zlashtirilgan mavzu, masala yoki hal qilingan muammo yuzasidan mantiqiy fikrlash, mavzu, masala yoki hal qilingan muammoning umumiy mohiyatini model (shartli belgi)lar yordamida tasvir shaklida ifodalay olish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Metodni qo'llashda tanlangan obyekt mohiyatini, muhim xususiyatlarini, ustuvor jihatlarini to'la ochib berishga alohida e'tibor qaratiladi.

“Jadval” metodi o'quvchilarda o'rganilayotgan mavzu, muhokama etilayotgan masala yoki muammoning nazariy mohiyatini jadval yordamida aks ettirish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Metodni qo'llashda o'quvchilar mavzu (masala, muammo) mohiyatini og'zaki bayon yoki yozma matn ko'rinishida emas, balki asosiy g'oya, tayanch tushuncha va muhim jihatlarini jadvalda aniq, qisqa ifodalash ko'nikmalarini o'zlashtiradi. Bilimlar soyaboni metodi Hamma fanga to'g'ri keladi. Bizga soyabon, o'tgan mavzuga doir savollar, atamalar, yomg'ir tomchilari rasmi yoki barglar kerak bo'ladi. Biz atamalarni barg yoki yomg'ir tomchilariga yopishtirib soyabonga bog'laymiz. Keyin o'quvchilar aylana bo'lib turishadi biz esa soyabonni ochib aylantiramiz. Kimga qaysi savol tushsa o'quvchi o'sha savolga javob beradi. 9. “Galereya” metodi o'quvchilarda kichik guruh asosida bir yo'la bir nechta masalani muhokama qilish qobiliyatini tarbiyalaydi. Metodni qo'llash chog'ida guruhning har bir a'zosi taklif etilgan barcha masalalar yechimini topishga o'z hissasini qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladi..

“Dekoder” metodi bu metodda so'zlar yoki tushunchalar kodlangan bo'ladi o'quvchilar buni topishi zarur. Mustahkamlash bosqichida quyidagi topshiriq beriladi “Alifbodagi sonlar tartibini to'g'ri topsangiz , qaysi hayvonlar nomi berilganligini bilib olasiz”.

SCAMPER - bu metod yechimlarni topishning ko'plab yo'llarini, variantlarini topishga mo'ljallangan. Bu variantlar harakatlar yoki savollar ro'yxatiga asoslangan bo'lishi mumkin va ular bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga “Bu nima uchun kerak?”, “Buni qayerlarda foydalanamiz?”, “Yana nima maqsadda ishlatsak bo'ladi?” degan ketma-ketlik savollar asosida o'quvchilarni o'ylashga, boshqa sohalarni ham inobatga olgan holda to'liq va to'g'ri fikrlashga o'rgatib boriladi. Scamper - harakatlar, o'zgartirishlar ro'yxati ko'rinishidagi muammolarni hal qilish usuli.

FREEWRITING – bu o'quvchilarni yozish ijodkorligini rivojlantirish orqali fikrlarini kengaytirish maqsad qilib olingan. Bunda o'quvchi fikrlarni puxta o'ylab, bilimlarini ketma-ketlikda joylashtirib nutqda bayon qilishga qaratilgan. Bu integratsiyalashgan darslarda keng ma'lumotlar bilan ishlashda juda samarali natija beradi. Bundan tashqari yozish asosida qo'l xotirasi orqali olingan bilimlar xotirada uzoq vaqt saqlanadi. 12. SINEKTIKA – to'g'ridan-to'g'ri o'xshashlik

tamoyiliga asosan, birbiriga o'xshash ma'lumotlarni olamiz, ularni solishtiramiz va o'rganamiz. Bu metod boshlang'ich sinf o'quvchilarining har bir fani uchun juda mos. O'simliklar tuzilishini o'rganishda juda qulay hisoblanadi. O'quvchi taqqoslash asosida o'xshashliklarni to'liq o'rgangandan so'ng chuqur bilimga ega bo'lish bilan bir qatorda, dars va ijtimoiy hayotda duch keladigan muammoli vaziyatlarda aniq yechim topa olishiga yo'naltiriladi. Sinektika (boshqa yunoncha – "geterojen elementlarning kombinatsiyasi") - bu kollektiv intellektual faoliyatning ijtimoiy-psixologik motivatsiyasiga asoslangan ixtirochilik ijodkorligi usuli.

Zamonaviy dars jarayonida ta'limiy o'yinlardan foydalanish O'quvchilar uchun sinflaridagi o'yinlar xuddi hayotdan har qanday tushunchani o'rganishga o'xshaydi. O'yinlar g'alaba va yutqazish jarayoni bilan tuzilganligi sababli, ular o'quvchilarga ulardan o'rganish imkonini beradi. Boshqacha qilib aytganda, bolalar noto'g'ri bo'lgan narsalar haqida bilib olishlari mumkin, shu bilan muammolarni hal qilish strategiyasini o'rganadilar. O'yinlar va bardamlashtiruvchi mashqlar - kichik treninglar, psixologik testlar, harakatli o'yinlar, qo'shiq va she'rlar mazmuniga ko'ra harakatlar qilish asosida amalga oshiriladi. Inson hayoti davomida uch faoliyat turidan foydalanadi: o'yin, o'qish, mehnat. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining asosiy faoliyat turi o'qish bo'lishiga qaramay, bir faoliyatdan to'la ikkinchisiga o'tish bolada qiyinchilik tug'diradi. Shu sababli dars jarayonida turli ta'limiy o'yinlar qo'llangan holda darslar tashkil etiladi. Bular bilan bir qatorda o'quvchini tetiklashtiruvchi mashqlar, dam olish daqiqalari o'tkazish bolaning ruhiy, jismoniy toliqishini oldini olib, darsga bo'lgan diqqatini jamlashga olib keladi. O'yin "Landi - landi" Maydonchada doira chiziqlari atrofiga halqalar doira asosida terilgan. Doira chiziqlariga lotin alifbosidagi harflarni bosma ko'rinishda terib qo'yilgan. Bolalar doira atrofiga orqamachasi turib oladilar. Landi-landi o'yin boshlandi deyiladi. Musiqa ostida o'yin boshlanadi. Bolalar obrich bo'ylab musiqaga mos harakat qilib yuradilar va musiqa to'xtasa har-bir harf oldiga kelib turadilar. (O'yin sharti orqasiga qaramaydilar) Bolalar musiqa to'xtaganda kelib to'xtagan harflaridan boshlangan she'rlar aytadilar. She'r ayta olmagan bola o'yinda mag'lub bo'ladi. "Uchdi - uchdi" Maqsad: Bolalarni qo'l muskullarini rivojlantirish, xushyorlikka va chaqqonlikka o'rgatish. O'yinning borishi: O'yin keng joyda o'tkaziladi. Bu o'yinda kamida 20 ta bola ishtirok etadi. Tarbiyachi bolalarga shunday deydi: - Bolalar sizlarga uchadigan narsalarni nomini aytsam qo'llaringizni ko'tarasizlar, uchmaydigan narsalarni nomini aytsam qo'llaringizni ko'tarmaysizlar. Adashgan bola o'yindan chiqib she'r aytib beradi. "Xatosini top" Didaktik maqsad; Bolalarda kuzatuvchanlik, ixtiyoriy diqqatni rivojlantirish. Voqelikni to'g'ri aks ettirish. O'yin qoidasi; Suratdan, voqelikdan o'zaro kamchilikni topish. O'yin harakati; Bolaga chizilgan rasmni ko'rsatiladi,

musavvir qayerda xato qilganligi soʻraladi. Masalan, qish faslida bolalar oʻynayapti, daraxtda yaproqlar, bolalar oyogida shippak. Rasm bolaga tushunarli boʻlishi kerak. Navbat bilan rassom xatosini topib, vazifani murakkablashtiriladi. Musavvir xatosi koʻpaytiriladi. “Enerjayzer” inglizcha soʻzdan olingan boʻlib, kuch va energiyamni qayta tiklayman maʼnosini bildiradi. Dars jarayonida enerjayzerlardan foydalanish asosida bolalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish bilan bir qatorda, jismoniy va fiziologik rivojlanishlariga ham ahamiyat berib beriladi. Bardamlashtiruvchi mashqlarning dars va uning mavzusiga bogʻliqligi ham bolalarning charchogʻini chiqarish bilan bir qatorda dars mazmunini toʻldirib boradi. Oʻtkazilayotgan dam olish mashqlari, avvalo, dars mavzusiga, qolaversa, fanga mos boʻlsa, yanada maqsadga muvofiq boʻladi. Boshlangʻich sinflarda dam olish mashqlari asosan harakatli oʻyinlar, sheʼr, qoʻshiqlar mazmuniga koʻra harakatlar, kichik yoshdagi oʻquvchilarga mos psixologik testlar, qiziqarli hangomalar, topishmoqlar koʻrinishida boʻlishi lozim. Buni amalga oshirishda integratsiya jarayoni ham muhim rol oʻynaydi. Quyida bu jarayonni aks ettiruvchi enerjayzer namunalaridan keltirib oʻtamiz. “Qush, hayvon, gul, daraxt, meva, sabzavot”. Enerjayzer Oʻyinning borishi: Oʻqituvchi ishtirokchilarga koptokni otadi va “Qush” deydi, koptokni ilib olgan ishtirokchi “Bedana” deb javob beradi. Oʻqituvchi “Hayvon” desa, ishtirokchi “Boʻri”, “Gul” desa, ishtirokchi “Atirgul” deb javob beradi, “Daraxt” desa, ishtirokchi “Chinor” deb javob beradi, “Meva” desa, ishtirokchi “Olma” deb javob beradi, oʻqituvchi “Sabzavot” desa, ishtirokchi “Sabzi” deb javob beradi va koptokni qaytaradi. Oʻyinda barcha ishtirokchilar faol ishtirok etadilar. Oʻyin tezkor suratda oʻtkaziladi. Oʻyin oʻquvchilar fikrlash tezligini, diqqatni rivojlantiradi, soʻz boyligini oshiradi. Buni ona tili darslarida qoʻllash asosida tabiiy fanlarda olgan bilimlari bilan integratsiyalash jarayonini yuzaga keltiramiz Matematik enerjayzer Bir-ikki-boshimiz oʻngga –chapga, Uch-toʻrt- qoʻlimiz ikki yoʻnga, Besh-olti-jim oʻtiramiz, Yetti-sakkiz-dangasalikni uloqtiramiz. Bu enerjayzer orqali matematika va tabiiy fanlar orasidagi bogʻliqlikni yuzaga keltiramiz. Bugungi kunda dunyoda turli xil zamonaviy pedagogik texnologiyalar mavjud boʻlib, oʻqitish jarayonida eng samaralisini tanlash birinchi navbatda dars beruvchi oʻqituvchiga bogʻliqligini yaqqol koʻrishimiz mumkin. Shunday ekan, oʻqitishning interfaol usullarini tanlashda taʼlim maqsadi, taʼlim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, oʻquv muassasasining oʻquv-moddiy sharoiti, taʼlimning davomiyligi, oʻqituvchining pedagogik mahorati va boshqa omillarni eʼtiborga olgan holda tanlash taʼlim sifatini yanada oshirishga asos boʻlib xizmat qiladi.

OʻYINLARDAN FOYDALANISHNING 10 TA AFZAL TOMONI:

1. Oʻquvchilarni sezgir qiladi Oʻyin oʻynash bolaning idrokini kuchaytirishga yordam beradi va shu bilan uning diqqatini oshiradi. Oʻyinlar tez

harakat talab qiladigan muhim xususiyatlarga ega, shuning uchun bolalar diqqatli bo'lishlari kerak. O'yinlar bolalarning miyasini mashq qildiradi.

2. O'quvchilarni qat'iyatli va shijoatli qiladi Sinfdagi o'yinlarda faol ishtirok etish bolalarga nima qilishdan qat'iy nazar qat'iyatli bo'lishga imkon beradi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, u o'rganish, qatnashish va sinfdagi mashg'ulotlarga e'tibor berishda bolalarning umumiy motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

3. Til va muloqotni rivojlantirishga yordam beradi Rivojlanayotgan bolaning miyasi ular duch kelgan har qanday yangi narsani tushunishga intiladi. Ular duch kelayotgan har bir yangi insondan ular muloqot va til ko'nikmalarini o'rganadi.

4. Muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi Bolalarni sinf o'yinlariga jalb qilish ularni muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu bolalarga ijobiy ta'sir qiladi, chunki ular ilg'or matematik yoki mantiqan fikrlash bilan shug'ullanishlari mumkin.

5. Majburiyatlar o'rnatish va hamkorlik qilishni o'rgatadi Sinf o'yinlari bilan shug'ullanish bolalarga individual va guruh faoliyati bilan ishlash imkonini beradi. Shunday qilib, bu boshqa bolalar bilan aloqalarni o'rnatish va hamkorlik qilish uchun yo'l ochadi. Buning sababi, ular jamoa bo'lib ishlash usullarini o'rganadilar. Bu shuningdek, bolalarga navbat bilan qilish, boshqalarni tinglash, hurmatni kuchaytirish va adolatli o'yin o'ynash imkonini beradi.

6. O'ziga bo'lgan ishonch va hurmatni oshiradi Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'quv usullariga o'yinlarni kiritish bolalarning g'ururi va his-tuyg'ularini bog'laydi.

7. Ajoyib ta'lim usullari bilan tanishtiradi Ba'zida o'qish va yozish bolalar uchun juda zerikarli bo'lib tuyuladi, shuning uchun ular turli tadbirlarda qatnashishni afzal ko'radilar. O'yinli ta'lim berish usuli esa ularga ham o'rganishga ham darsdan zavq olishga yordam beradi.

8. Bolalarni bir nechta faoliyat bilan shug'ullanishga majbur qiladi. Dubaydagi eng yaxshi xalqaro maktablar sinf o'yinlarida badiiy komponentlarni o'rnatadilar. Bu o'quvchilarga o'zlarining original g'oyalarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Natijada, ular o'zlarini sezilarli darajada ijodiy tarzda ifoda etishlari mumkin. Boshqa tomondan, yangi ko'nikmalar bilan shug'ullanish ularning hayotining turli jabhalariga eshiklarni ochadi.

9. O'quvchilarga har qanday yangi muhitga moslashishga yordam beradi Sinfdagi o'yinlar o'quvchilarga har qanday yangi muhitga moslashish strategiyasini ta'minlaydi, ayniqsa ular uzoq vaqt davomida sinfdan yoki maktabdan uzoqda bo'lgan vaqtida.

10. O'quvchilarni xatolaridan saboq olishga majbur qiladi O'quvchilar uchun sinflaridagi o'yinlar xuddi hayotdan har qanday tushunchani o'rganishga

o'xshaydi. O'yinlar g'alaba va yutqazish jarayoni bilan tuzilganligi sababli, ular o'quvchilarga ulardan o'rganish imkonini beradi.

Savod o'rgatish boshlang'ich ta'limning eng muhim bosqichi bo'lib, o'quvchilarda o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonning samaradorligi savod o'rgatish metodikasining ilmiy asoslanganligi, tilshunoslik qonuniyatlariga mosligi hamda o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish darajasiga bevosita bog'liqdir. Shuning uchun savod o'rgatish metodikasi ilmiy, lingvistik va psixologik asoslar majmuasiga tayangan holda tashkil etiladi.

Savod o'rgatish metodikasining ilmiy asoslari

Savod o'rgatish metodikasining ilmiy asoslari pedagogika, didaktika va ta'lim nazariyasining umumiy qonuniyatlariga tayanadi.

Ilmiy asoslarning mazmuni:

- ta'limning maqsad va vazifalarini aniq belgilash;
- ta'lim jarayonining tizimliliigi va izchilligi;
- osondan qiyinga, oddiydan murakkabga tamoyili;
- nazariya va amaliyotning uzviyligi.

Savod o'rgatishda ilmiy yondashuv o'qish va yozishga o'rgatishni bosqichma-bosqich tashkil etishni, mashq va takrorlash orqali ko'nikmalarni mustahkamlashni talab etadi. Savod o'rgatish metodikasining lingvistik asoslari Savod o'rgatish jarayonining muvaffaqiyati tilshunoslik fanining qonuniyatlariga amal qilinishiga bog'liq. Lingvistik asoslar ona tilining fonetik, leksik, grammatik va orfoepik xususiyatlariga tayangan holda belgilanadi.

Lingvistik asoslarning asosiy yo'nalishlari:

a) Fonetik asoslar

- tovush va harf munosabatini o'rgatish;
- unli va undosh tovushlarning farqlanishi;
- tovushlarni bo'g'inlarga ajratish;
- so'z tarkibini tovush jihatdan tahlil qilish.

b) Grafik asoslar

- harflarning yozma va bosma shakllari;
- harflarni to'g'ri yozish texnikasi;
- yozuvda harflarni bog'lash qoidalari.

c) Leksik va grammatik asoslar

- so'z ma'nosini tushuntirish;
- so'zlarning gapdagi vazifasini anglatish;
- sodda gap tuzishga o'rgatish.

Lingvistik asos savod o'rgatishda o'quvchilarning tilni ongli o'zlashtirishiga yordam beradi.

Savod o'rgatish metodikasining psixologik asoslari Savod o'rgatishda o'quvchilarning yosh va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Psixologik asoslar bolalarning idrok, tafakkur, xotira, diqqat va nutq rivoji bilan bevosita bog'liqdir.

Psixologik asoslarning asosiy jihatlari:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqish va ehtiyojlari;
- ko'rgazmali-obrazli tafakkurning ustuvorligi;
- qisqa muddatli diqqatni rivojlantirish zarurati;
- o'yin faoliyati orqali o'rganishga moyillik.

Savod o'rgatishda rasm, sxema, tovushli mashqlar, o'yinlar va interaktiv usullardan foydalanish psixologik jihatdan samarali hisoblanadi.

Ilmiy, lingvistik va psixologik asoslarning o'zaro bog'liqligi Savod o'rgatish metodikasi uch asos — ilmiy, lingvistik va psixologik asoslarning uzviy birligida amalga oshiriladi. Ushbu asoslar bir-birini to'ldiradi va ta'lim samaradorligini ta'minlaydi.

- Ilmiy asos — ta'lim jarayonining umumiy yo'nalishini belgilaydi.
- Lingvistik asos — o'qitiladigan materialning mazmunini aniqlaydi.
- Psixologik asos — o'qitish usullarining samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Savod o'rgatish metodikasining ilmiy, lingvistik va psixologik asoslari boshlang'ich ta'lim sifatini belgilovchi muhim omillardandir. Ushbu asoslarni uyg'unlashtirgan holda tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarda to'g'ri, ongli va ravon o'qish hamda yozish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-amaliy mashg'ulot Ona tili va adabiyoti fanini o'qitishda zamonaviy baholash metodlari. Formativ va summativ baholash, rubrikalar asosida yozma va og'zaki nutqni baholash.

Zamonaviy ta'lim tizimida baholash faqatgina o'quvchining bilim darajasini aniqlash vositasi bo'lib qolmasdan, balki ta'lim jarayonini takomillashtirish, o'quvchini rivojlantirish va o'qitish sifatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik mexanizm sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, ona tili va adabiyoti fanlarida baholash o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasi, ijodiy fikrlashi, matn bilan ishlash ko'nikmalari va adabiy-estetik didini rivojlantirishga yo'naltirilishi zarur.

An'anaviy baholash tizimi ko'proq yakuniy natijani o'lchashga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy baholash metodlari o'quvchining o'rganish jarayonini, rivojlanish dinamikasini va individual imkoniyatlarini hisobga oladi. Ushbu ma'ruzada ona tili va adabiyoti fanini o'qitishda qo'llaniladigan zamonaviy baholash metodlarining mohiyati, turlari va amaliy ahamiyati yoritiladi.

Baholash tushunchasi va uning didaktik ahamiyati

Baholash — bu o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, tahlil qilish hamda ularning ta'limiy rivojlanishini kuzatib borish jarayonidir. Zamonaviy pedagogik yondashuvda baholash quyidagi vazifalarni bajaradi:

- o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash;
- ta'lim jarayonidagi bo'shliqlarni aniqlash;
- o'quvchini o'z ustida ishlashga rag'batlantirish;
- o'qituvchiga ta'lim metodlarini takomillashtirish imkonini berish.

Ona tili va adabiyoti fanlarida baholash faqat grammatik qoidalarni bilishni emas, balki o'quvchining nutqi, fikrlash mantiqi, matnni tahlil qilish va ifodali o'qish kabi kompetensiyalarni qamrab olishi lozim.

An'anaviy va zamonaviy baholash metodlarining farqi

An'anaviy baholash asosan og'zaki so'rov, yozma nazorat ishlari va testlar orqali amalga oshiriladi. Bu usullar ko'proq yakuniy natijani aniqlashga qaratilgan. Zamonaviy baholash metodlari esa quyidagi xususiyatlarga ega:

- jarayonga yo'naltirilganlik;
- shaffoflik va adolatlilik;
- o'quvchining individual rivojini hisobga olish;
- refleksiya va o'zini baholash imkoniyati.

Zamonaviy baholash metodlarining turlari

Formativ baholash

Formativ baholash ta'lim jarayonida doimiy ravishda olib borilib, o'quvchining rivojlanish dinamikasini kuzatishga xizmat qiladi. U quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- savol-javoblar;
- mini-testlar;
- og'zaki va yozma fikr-mulohazalar;
- tezkor topshiriqlar.

Ona tili va adabiyoti darslarida formativ baholash o'quvchilarning nutqiy xatolarini o'z vaqtida aniqlash va tuzatish imkonini beradi.

Summativ baholash

Summativ baholash muayyan mavzu, bo'lim yoki o'quv yili yakunida o'tkaziladi. U o'quvchilarning erishgan natijalarini umumiy baholashga xizmat qiladi. Masalan, diktant, insho, test va imtihonlar summativ baholashga kiradi.

Diagnostic baholash

Diagnostic baholash o'quvchilarning boshlang'ich bilim darajasini aniqlash uchun qo'llaniladi. Bu baholash turi o'qituvchiga ta'lim strategiyasini to'g'ri belgilash imkonini beradi.

O'zini o'zi baholash va o'zaro baholash

Ushbu metodlar o'quvchilarda mas'uliyat, tanqidiy fikrlash va refleksiya ko'nikmalarini shakllantiradi. O'quvchilar o'z ishlari yoki sinfdoshlarining ishlarini belgilangan mezonlar asosida baholaydilar.

Baholash mezonlari va rubrikalar

Zamonaviy baholashda aniq mezon va ko'rsatkichlarga asoslangan rubrikalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Masalan, insho yoki bayon baholashda quyidagi mezonlar qo'llaniladi:

- mazmunning to'liqligi;
- mantiqiy izchillik;
- til va uslubga rioya qilish;
- imlo va punktuatsiya;
- ijodiy yondashuv.

Rubrikalar baholashning shaffofligini ta'minlaydi va o'quvchilarga o'z ustida ishlash yo'nalishini ko'rsatadi.

Raqamli baholash vositalari

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi baholash jarayoniga ham yangicha yondashuvlarni olib kirdi. Ona tili va adabiyoti fanida quyidagi raqamli vositalardan foydalanish mumkin:

- onlayn test platformalari;
- elektron portfoliolar;
- interaktiv topshiriqlar;
- mobil ilovalar orqali baholash.

Elektron portfolio o'quvchining ijodiy ishlari, insholari va loyihalarini jamlash orqali uning rivojlanish dinamikasini ko'rsatadi.

Zamonaviy baholash metodlarining afzalliklari

Zamonaviy baholash metodlari quyidagi afzalliklarga ega:

- o'quvchining shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydi;
- ta'lim jarayonini takomillashtiradi;
- o'quvchini mustaqil ishlashga o'rgatadi;
- adolatli va shaffof baholashni ta'minlaydi.

Ona tili va adabiyoti fanini o'qitishda zamonaviy baholash metodlaridan foydalanish ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Ushbu metodlar o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga, ijodiy fikrlashini qo'llab-quvvatlashga va ularni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun o'qituvchilar zamonaviy baholash yondashuvlarini amaliyotga keng joriy etishlari zarur.

Zamonaviy ta'lim tizimida baholash o'quvchilarning bilimini tekshirish bilangina cheklanmay, balki ularning nutqiy rivojlanishini, tafakkuri va ijodiy salohiyatini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilishi lozim. Ayniqsa, ona tili va adabiyoti fanlarida baholash o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan formativ va summativ baholash hamda rubrikalar asosida baholash metodlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Formativ baholash va uning nutqni rivojlantirishdagi o'rni

Formativ baholash — bu ta'lim jarayonida muntazam ravishda olib boriladigan, o'quvchining rivojlanish dinamikasini kuzatishga qaratilgan baholash turi hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi o'quvchini baho bilan jazolash emas, balki o'rganish jarayonini yaxshilashdir.

Formativ baholashning asosiy xususiyatlari:

- jarayonga yo'naltirilganlik;
- tezkor fikr-mulohaza (feedback);

- o‘quvchini o‘z xatolarini anglashga undash;
- nutqiy kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish.

Ona tili va adabiyoti darslarida formativ baholash shakllari:

- og‘zaki javoblarni tahlil qilish;
- qisqa yozma ishlar (mini-insho, tezkor bayon);
- savol-javob va muhokamalar;
- og‘zaki nutqqa beriladigan izoh va tavsiyalar.

Formativ baholash orqali o‘quvchilarning so‘z boyligi, grammatik to‘g‘riligi, fikrni izchil bayon qilish ko‘nikmalari bosqichma-bosqich rivojlantiriladi.

Summativ baholash va uning ta’limdagi ahamiyati

Summativ baholash — bu muayyan mavzu, bo‘lim yoki o‘quv yili yakunida o‘tkaziladigan baholash turi bo‘lib, o‘quvchining erishgan yakuniy natijalarini aniqlashga xizmat qiladi.

Summativ baholashning vazifalari:

- o‘quvchining umumiy bilim va ko‘nikmalarini baholash;
- davlat ta’lim standartlari asosida natijani aniqlash;
- ta’lim samaradorligini tahlil qilish.

Summativ baholash shakllari:

- diktant;
- insho va bayon;
- og‘zaki imtihon;
- test va nazorat ishlari.

Summativ baholashda o‘quvchining yozma va og‘zaki nutqi muayyan mezonlar asosida umumiy baho bilan ifodalanadi.

Rubrikalar asosida baholash tushunchasi

Rubrika — bu o‘quvchining ishini aniq mezonlar va darajalar asosida baholash imkonini beruvchi baholash jadvali hisoblanadi. Rubrikalar baholash jarayonini shaffof, adolatli va tushunarli qiladi.

Rubrikalar ayniqsa yozma va og‘zaki nutqni baholashda samarali bo‘lib, o‘quvchiga o‘z ustida ishlash yo‘nalishini aniq ko‘rsatadi.

Rubrikalar asosida yozma nutqni baholash

Yozma nutqni (insho, bayon, diktant) baholashda quyidagi mezonlar asosida rubrikalar tuziladi:

Asosiy mezonlar:

- mavzuning to‘liq yoritilishi;
- mantiqiy izchillik va kompozitsiya;

- til va uslubga rioya qilish;
- grammatik to‘g‘rilik;
- imlo va punktuatsiya;
- ijodiy yondashuv.

Rubrika orqali o‘quvchi qaysi jihatdan kuchli yoki kamchilikka ega ekanini aniq ko‘ra oladi.

Rubrikalar asosida og‘zaki nutqni baholash

Og‘zaki nutqni baholashda rubrikalar quyidagi ko‘rsatkichlarga asoslanadi:

- fikrning aniqligi va ravonligi;
- so‘z boyligidan foydalanish;
- grammatik to‘g‘rilik;
- talaffuz va ohang;
- mantiqiy izchillik;
- nutq madaniyati.

Og‘zaki nutqni rubrikalar asosida baholash o‘quvchining nutqiy faolligini oshiradi va uni erkin fikrlashga o‘rgatadi.

Formativ va summativ baholash hamda rubrikalar asosida yozma va og‘zaki nutqni baholash ona tili va adabiyoti fanini o‘qitishda muhim metodik ahamiyatga ega. Ushbu baholash yondashuvlari o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga, mustaqil fikrlashini qo‘llab-quvvatlashga va ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga oid kommunikativ, innovatsion, kreativ yondashuvlarning asosiy omillaridan biri og‘zaki va yozma nutqini adabiy til me‘yorlari asosida rivojlantirish hisoblanadi. Bu jihat, o‘quv faoliyatining jamoaviy xususiyati va bilimlarni qat‘iy o‘zlashtirilishi natijasida, nutqiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish, o‘quvchilarda tinglab tushunish, eshitish, so‘zlash, yozish ko‘nikmalarining sub‘ektiv munosabat bildirish bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish, ta‘lim oluvchining intilishlari va qobiliyatlari, uning hayotiy tajribalaridan chiqargan xulosalarni inobatga olish kabi nutqiy vaziyatlarda namoyon bo‘ladi. Ma‘lumki, so‘nggi yillarda ta‘lim jarayoniga tatbiq qilingan 10-11-sinf “Ona tili” darsliklari shakl va mazmun jihatdan yangilandi. Mazkur darsliklarning o‘quvchilar uchun afzal tomonlaridan biri mavzular bosqichma-bosqich berilgan bo‘lib, nazariy ma‘lumotlar keyingi mavzularni o‘rganish uchun asosiy o‘rin tutgan. 10-sinf “Ona tili” darsligida nutq uslublari, morfologik ko‘rsatkichlar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari uslubiyati, har bir uslubga xos bo‘lgan leksik va morfologik, sintaktik birliklarning ishlatilish o‘rinlari, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari, undalma va kirishlar, qo‘shma, ko‘chirma, o‘zlashtirma gaplar uslubiyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar berilgan. 11-sinf darsligida esa, nutq va uning madaniyligini ta‘minlovchi kommunikativ sifatlar

yuzasidan umumiy tushunchalar, nutq kommunikativ sifatlarining har biriga tegishli alohida nazariy ma'lumotlar hamda mavzularni mustahkamlashga doir mashq va topshiriqlar berilib, turli lugʻatlardan ogʻzaki va yozma nutqni rivojlantirishga xizmat qiluvchi soʻzlar izohi, tilimizga kirib kelgan yangi soʻzlar maʼnosi keltirilgan.

Ona tili darslarida oʻquvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish innovatsion metodlar asosida amalga oshirildi. Jumladan, ona tili darslarida innovatsion, interfaol taʼlim texnologiyalar ("Emotsional-ekspressiv boʻyoqdor soʻzlar ustida ishlash" metodi, "Onlayn topshiriq berish" metodi, "Savodxon" metodi, Grammatik-assotsiativ metod, va "Qiziqarli taqdimot", "Zukkolik", "Sub'ektiv munosabat", "Ma'nosiga izoh", "Bahs-munozara" oʻyinlari) tushunib soʻzlash, ifodali oʻqish, adabiy til meʼyorlariga amal qilib yozma nutqini oʻstirish uchun samarali natijalar beradi.

Shuningdek ona tili darslarida:

- "Savodxon" metodi yordamida imloviy meʼyorlarni aniqlashtirish;
- "Grammatik-assotsiativ metod" metodidan foydalanib oʻquvchilarni mavzu doirasida tilshunoslik asoslari boʻyicha grammatik qoidalar negizida matn turlarini tuzish va yozish;
- "Onlayn topshiriq berish" metodi vositasida masofaviy taʼlimda lingvistik kompetensiyalar negizida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish;
- "Qiziqarli taqdimot" oʻyinini oʻtkazish orqali rasmiy matnning rekvizitlariga rioya qilib tuzish; bahs-munozara asosida davra suhbatini tashkil etish;
- "Ma'nosiga izoh" oʻyini yordamida oʻquvchilarning olib borilayotgan dars mashgʻulot doirasida soʻzlarning koʻchma maʼnolarini ogʻzaki va yozma nutqida foydalanish mumkin.

Nutqiy kompetensiyaning mazmun-mohiyati va elementlari

Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, soʻzlash, oʻqish, yozish): - Oʻqituvchi nutqini, video va audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarni tinglab tushuna oladi; rasmlar asosida va oʻqib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi, nutq jarayonida oʻzlashtirgan yangi soʻzlarni ogʻzaki nutqda qoʻllay oladi; mashq matnidagi soʻzlarni qoʻshib oʻqiy oladi, gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va ifodali oʻqiy oladi, harflar birikmasi ishtirok etgan soʻzlarni oʻqiy oladi; soʻzda nechta tovush boʻlsa, shuncha boʻgʻin boʻlishini bir unli tovush boʻgʻin hosil qilishini, yaʼni o-na, u-ka, a-ka kabi boʻgʻinga boʻla oladi, harflar birikmalari ishtirok etgan soʻzlarni boʻgʻinga boʻla oladi, x va h tovushli soʻzlarni toʻgʻri yoza oladi, bir mavzu doirasidagi savollarga javob yoza oladi, mashʼal, maʼqul, taʼlim, Jurʼ-at, taʼ-zim kabi tutuq belgili soʻzlarni boʻgʻinga boʻlib yoza oladi, lugʻat, izohli, eshituv, yoddan yozuv, rasmlil diktant yoza oladi hamda gaplarni rasmlar tartibida koʻchira oladi.

Oʻquvchilarning nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda oʻqituvchining darsga jiddiy yondashishi zarur ekanligi Sh.Sariyevning tadqiqot ishida yoritilgan. "Oʻqituvchining oʻqish namunasiga koʻra oʻquvchilar toʻgʻri, ifodali oʻqishni

o'rganadi. Darsda matnni o'qib berish uchun o'qituvchi puxta tayyorgarlik ko'rishi, mazmunni chuqurroq anglashga intilishi, matnning ayrim o'rinlari qanday o'qilishi lozimligini belgilab olishi lozim. O'qituvchi ayrim tovush, bo'g'in, so'zlarni qanday o'qish kerakligini izohlagach, o'quvchilar matnni navbat bilan o'qishadi. O'qituvchi ularni kuzatib, to'g'rilab boradi"⁶. O'qituvchi so'zni risoladagidek o'qishni, so'zlarni o'qish vaqtida intonatsiya va urg'uga e'tibor berishni, jumalarning tarkibidagi leksik birliklar tiniq, ravon talaffuz qilishni o'rgatsa, o'quvchilarning o'qish texnikasini egallash faoliyati aktiv holatga o'zgaradi.

O'qish texnikasini egallashda takror o'qish samara beruvchi nutqiy faoliyatdir. Bir marta o'qilgan matn o'quvchida yetarlicha tushuncha va bilim hosil qilmasligi mumkin. O'qish faoliyatining qiziqarli tashkil qilinishi ularning chuqur bilim egallashga yo'naltiradi. Muntazam kitob o'qish, ilmiy, badiiy adabiyotlarni mutolaa qilish muayyan motivlarni o'zida tarkib toptiradi.

– Binobarin, o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib quyidagi omillarni keltirish mumkin: o'quv dasturida berilgan mavzular bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish;

– o'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish;

– mashq va topshiriqlarni bajartirish orqali nazariy bilimlarini mustahkamlash va nutqini o'stirish;

– ona tili darsligida berilgan matn va lug'at ustida ishlashni muntazam olib borish;

– ona tili mashg'ulotlarida ilg'or texnologiyalar va zamonaviy metodlar asosida bog'lanishli matn tuzish va yozish malakalariga e'tibor qaratish;

– ilmiy qarashlarga va badiiy ifodalarni izohlab, ularga subyektiv munosabat bildirish va mantiqiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish.

Demak, ona tili darslarida o'quvchilarning nutq madaniyatini va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga har bir dars davomida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Nutq – fikr bayon qilish vositasi bo'lib, og'zaki va yozma shaklda ifodalanadi. Tafakkur nutq yordamida ro'y berib, shu tufayli kishilar bir-birlari bilan aloqa bog'laydilar. Og'zaki nutq pauza, urg'u, intonatsiya va tovushlar orqali tinglovchiga borib yetsa, yozma nutq harf va so'zlarning ma'lum qonuniyat asosida o'zaro birikuvi, tinish belgilari, har xil ajratishlar, gaplarni grammatik jihatdan aniq va tovushlarni bayon qilish orqali yetib boradi. Og'zaki nutqning yozma nutqdan yana bir farqi shuki, og'zaki nutqni eshitamiz, yozma nutqni ko'ramiz va o'qiymiz. Yozma nutq murakkab jarayon bo'lib, u ko'p vaqt mehnat talab qiladi. Sintaksis jihatdan qaraganda yozma nutq eng to'liq va mukammal

nutqdir. Bu nutq ixtiyoriy fikrimizni ifodalab berishning eng yaxshi vositasidir. Yozma nutq og'zaki nutq asosida rivojlanadi. Og'zaki nutq hayotda kishilar bilan munosabatda bo'lish , ularga taqlid qilish yo'li bilan rivojlanib , boladan maxsus o'qish va o'rganishni talab etmaydi. Yozma nutq esa harfalar va belgilar yordami bilan tovushlar , so'zlar , gaplarni ko'z bilan idrok qilishga , qo'l bilan yozishga mo'ljallangan nutqdir. Nutq – kishi faoliyatining turi , til vositasi (so'z , so'z birikmasi , gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar , o'z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir. Nutq o'stirish nima? Agar o'quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa , nutq o'stirish deganda tilni har tomonlama (talafuzi , lug'ati , sintaktik qurilishining , bog'lanishli nutqni) faol amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa , nutq o'stirish deganda , o'quvchilar tilning talafuzi , lug'ati , sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo'llash tushuniladi. Shuning uchun ham grammatik va imlo dasturi tovushlar va harflar , so'z , gap , bog'lanishli nutq kabi qismlarini o'z ichiga olgan. Ona tili dasturining bo'limlari: “Xat-savod o'rgatish va nutq o'stirish”, “o'qish va nutq o'stirish”, “Grammatika, imlo va nutq o'stirish” deb nomlangan.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek o'quvchilar nutqini o'stirish uchun bir necha shartga rioya qilishi zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini , nimanidir og'zaki yoki yozma bayon xohishini va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni , material bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq , boy qimmatli bo'lsa uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi. Shunday ekan , o'quvchilar nutqini o'stirishning ikkinchi sharti nutqqa oid mashqlarning materiali haqida , bola nutqini mazmunli bo'lishi uchun g'amxo'rlik qilish hisoblanadi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so'z , so'z birikma , gap , nutq axborotlari yordamida ifodalansagina tushunarli bo'ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning uchinchi sharti – nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi. Bolalarga til na'munalarini berish , ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur. Nutqni eshitish va undan o'z tajribasida foydalanish natijasida bolalarda ta'lim metodikasi asoslanadigan ongli ravishda “tilni sezish” shakllanadi.

Fikrni ifodalash usullariga ko'ra nutq og'zaki va yozma bo'ladi. O'g'zaki nutq yozma nutqdan quyidagicha farqlanadi: og'zaki nutq tovush nutqi, yozma nutq esa grafik nutqdir. Og'zaki nutqda eshitish sezgisi, yozma nutqda esa ko'rish va motor-harakat (qo'l harakati) sezgisi asosiy o'rin tutadi. Og'zaki nutq ham, yozma nutq ham kishilarning o'zaro aloqa quroli sifatida xizmat qiladi, ammo og'zaki nutq aniq hayotiy sharoitda, bevosita aloqa jarayonida yuzaga keladi; yozma nutqda bevosita, aniq sharoitdan ajratilgan holda ham, kishi ishtirokisiz ham foydalaniladi. Og'zaki nutq ko'pincha dialog tarzida, yozma nutq esa monolog tarzida bo'ladi. Yozma nutq logik izchillikka rioya qilgan holda, ayrim til shakllarini tushirib qoldirmay, ortiqcha takrorga yo'l qo'ymay bayon qilishni talab etadi, shuning uchun yozma nutq ancha murakkab va mavhum hisoblanadi.

O'quvchilar nutqini o'stirishda aniq belgilangan bir qator talablarga rioya qilinadi:

1. O'quvchilar nutqi mazmunder bo'lsin. Hikoya yoki insho o'quvchilar uchun yaxshi ma'lum bo'lgan dalillar, ularning kuzatishlari, hayotiy tajribalari, kitobardan, rasmlardan, radioeshtirish va teleko'rsatuvdan olgan ma'lumotlari asosida tuzilsagina mazmunli bo'ladi. Bolalar bilmagan narsa, ko'rmagan voqea-hodisalar haqida yetarli tayyorgarliksiz so'zlashga yo'l qo'yilsa, nutq kambag'al, mazmunsiz chiqadi. Nutq o'stirish metodikasi hikoya, insho uchun materialni puxta tayyorlashni, ya'ni material yig'ishni muhokama qilish, to'ldirish, asosiy mazmunini ajratish, zaruriy izchillikda joylashtirishni talab qiladi. Albatta, bunda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va qiziqishlari ham hisobga olinadi. **1**

2. Nutqda mantiqiylik bo'lsin. O'quvchilar nutqi mantiqan to'g'ri bo'lishi, fikr izchil, asosli bayon etilishi, asosiy o'rinlar tushirib qoldirmasligi va o'rinsiz takrorga, mavzuga taaluqli bo'lmagan ortiqchalikka yo'l qo'ymasligi talab etiladi. Nutqning mantiqiyligi narsa, voqea-hodisalarni yaxshi bilish bilan belgilanadi, mantiqiy xato esa material mazmunini aniq bilmaslik, mavzuni o'ylamasdan noqulay tanlash natijasida kelib chiqadi. Bu ikki talab nutqning mazmuni va qurilishiga taaluqlidir. Nutqni til jihatidan shakllantirishga oid talablar ham mavjud.

3. Nutq aniq bo'lsin. O'quvchi dalillar, kuzatishlar, taassurotlarni haqiqatga mos ravishda oddiy bayon etibgina qolmay, shu maqsadning eng yaxshi til vositalaridan (so'z, so'z birikmasi, gaplardan) foydalangan holda, maxsus tasvirlar bilan ifodalashga o'rgansin.

4. Nutq til vositalariga boy bo'lsin. Mazmunni aniq ifodalash uchun o'quvchi nutqi til vositalariga boy bo'lishi, u har qanday vaziyatda ham kerakli sinonimlardan, xilma-xil tuzilgan gaplardan mazmunga eng mosini tanlab

1 Muhiddinov A.G'. O'quv jarayonida nutq faoliyati. – T.: O'qituvchi, 1995. 78-bet

foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'ish zarur. Albatta , boshlang'ich sinf o'quvchilariga til boyligi yuzasidan yuqori talab qo'yib bo'lmaydi , ammo o'qituvchi o'quv ishlarida ularning so'z boyligini oshirib borishni har vaqt ko'zda tutishi kerak.

5. Nutq tushunarli bo'lsin. Og'zaki nutq esa eshituvchiga , yozma nutq esa uni o'quvchi tushunarli bo'lishi zarur. So'zlovchi yoki yozuvchi nutqini eshituvchining yoki o'quvchining imkoniyatini , qiziqishini hisobga olgan holda tuzsa , uni hamma birdek , hech qiyinchiliksiz tushunadi.

6. Nutq ifodali bo'lsin. Agar nutq ifodali , ya'ni jonli , chiroyli, ishontiradigan bo'lsa , eshituvchiga intonatsiya orqali ta'sir etsa , og'zaki nutq ham , yozma nutq ham tinglovchi va o'quvchiga hikoyaning umumiy ruhi , dalillar, tanlangan so'zlar , ularning emotsionalligi , tuzilgan jumla , iboralar yordamida ta'sir etadi. Nutqning tushunarli va ifodali bo'lishi har qanday shevaga xos va ortiqcha so'zlardan sof bo'lishini taqozo etadi.

7. Nutq to'g'ri bo'lsin. Maktab uchun nutqning adabiy til normalariga mos-to'g'ri bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Yozma nutq grammatik , imlo va punktuatsiya jihatidan , og'zaki nutq esa orfoepik jihatidan to'g'ri tuzilishi talab etiladi. Nutqning to'g'ri , bo'lishi uchun so'z tanlash va nutq logikasi katta ahamiyatga ega.

Yuqorida sanab o'tilgan talablar o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, maktab ishlari tizimida kompleks ravishda amalga oshiriladi.

Nutq fikrni bayon etish vositasi bo'libgina qolmay , uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosiy vazifasini bajaradi , uni o'stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi.

Aqliy faoliyat tizimini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o'stirish mumkin. Shuning uchun o'quvchilar nutqini o'stirishda materialni tayyorlash , takomillashtirish , mavzuga tegishlisini tanlash , joylashtirish va mantiqiy operatsiyalarga katta ahamiyat beriladi. Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsa va bayon etilsagina muvaffaqiyatli o'sadi. Tushuncha so'zlar yoki so'z birikmalari bilan ifodalanadi , shunday ekan , tushuncha til vositasi bo'lgan so'zda muhim aloqa materialiga aylanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan so'z (so'z birikmasi)ni bilsagina , shu tushunchaga asoslangan holda , tashqi nutqda fikrlash imkoniga ega bo'ladi.

Til va nutq o'zaro bog'liq hodisalar bo'lib, til nutq uchun ashyodir, imkoniyatdir, nutq esa voqelikdir, ya'ni nutq til materiali asosida tashkil topadi. Til jamiyat a'zolari uchun umumiy bo'lib, ruhiy va moddiy materialdan iboratdir.

So'z, morfema, fonemalarning kishi xotirasidagi obrazlari ruhiy "material" hisoblanadi. Nutq yaratish jarayonida ma'lum tovush tizimida namoyon bo'ladigan so'z va morfemalar moddiy materialdir. Tilning ruhiy hodisaligi uning xotirada

saqlanishi bilan bog'liqdir. Tilning moddiyligini nutq jarayonida yuzaga keluvchi tovushlar belgilaydi.

Biz xotiramizda saqlanadigan qoidalaridan tezkorlik bilan foydalanib, biror fikrni yuzaga chiqarish uchun so'zlar grammatik ma'no tashuvchi morfemalar va so'z shakllari, asosan, gaplarni hosil qilamiz. Masalan, bizda kitobning qayerdan olinganligini bilish haqidagi fikr tug'ildi, deylik. Uni quyidagi savol shaklida yuzaga chiqaramiz: *Sen kitobni qaerdan olding?*

Bunda biz *sen, kitob, qaer, ol* leksemalaridan; *-ni, -dan, -ding* morfemalaridan va so'roq gap modelidan – qoidasidan foydalandik. Mazkur gapni aytish jarayonida xotiramizdagi leksemalar alohida affiks morfemalarni olib, so'z shakllariga aylandi va yuqoridagi tartibni egalladi. Til ruhiy hodisadan moddiy hodisaga aylandi.

Nutq tildagi ifoda vositalaridan foydalangan holda voqelikka aylangan fikrdir. Nutq nutq a'zolarining harakatiga ko'ra yuzaga kelib, ikki xil bo'ladi: ichki nutq va tashqi nutq. Kishilarning tovushlarni – so'zlarni talaffuz qilmasdan fikrlashi, mulohaza yuritishi, o'ylashi ichki nutqdir. O'pkadan chiqqan havoning nutq a'zolariga ta'siri, shu ta'sir natijasida ularning harakati bilan aniq tovushlar sifatida yuzaga keladigan nutq tashqi nutqdir.

Nutq harakatdagi tildir. Nutq til birliklarini o'zaro mantiqiy bog'lab, ularni harakatga keltiradi. Nutq so'z, so'z birikmalari va gaplardan iborat bo'ladi.

Adabiy me'yor. Ma'lum bir hududda tarqalgan uzus imkoniyatlari o'sha hududda yashovchi aholi uchun istisnosiz tushunarli bo'ladi, ya'ni aloqani yengil amalga oshirishga imkon beradi. Bu – tilning o'zi me'yordan iboratligini ko'satadi. Me'yor tilning yashash shaklidir

Adabiy me'yor uzusga asoslanadi, undan olinadi. Adabiy me'yor adabiy til bilan birga tug'iladi, badiiy adabiyotning, xalq madaniyatining taraqqiyoti bilan rivojlanib, o'z qoidalarini mustahkamlab boradi.

Adabiy me'yor uzusdan olinganligi sababli hamma uchun tushunarli bo'ladi. Shuning uchun jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyat a'zolarini uyushtirishda katta vazifalarga otlantirishda adabiy til, uning me'yorlari jamiyat uchun nihoyatda zarurdir.

O'zbek adabiy tili me'yorlari ilmiy asarlarda quyidagicha tasnif qilinadi: leksik-semantik me'yor, talaffuz – (orfoepik) me'yor, yozuv (grafik) me'yor, fonetik me'yor, aksentologik (urg'uni to'g'ri qo'llash) me'yor, grammatik (morfologik va sintaktik) me'yor, so'z yasaliş me'yorlari, imloviy me'yor, uslubiy me'yor, punktuatsion me'yor.

Adabiy me'yorning og'zaki va yozma ko'rinishlari mavjud bo'lib, og'zaki adabiy me'yorning rivojlanishiga xalq qiziqchilari askiyachilari, laifago'ylari, xalq shoir – baxshilari katta hissa qo'shsalar, yozma adabiy me'yorning shakllanishida

belgilangan yozuv shakli asosida yozib qoldirilgan yozma adabiyotning xizmati cheksizdir. Umuman olganda, adabiy til me'yorini o'rganish yangi hodisa emas. Til me'yori va adabiy me'yor muammo sifatida nutq madaniyati ilmiy soha deb tan olingunga qadar ham o'rganib kelingan. Adabiy til me'yori, uning shakllanish, rivojlanish, stabillashuv qonuniyatlari nutq madaniyati sohasining tekshirish obyekti hisoblanadi.

